



UDK:94(575.1):711.4(09)(575.1)

Zafar KARIMOV,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: temurmalik154@gmail.com

Urganch Ranch universiteti dotsenti, t.f.d U.Sheripov taqrizi asosida

POLITICAL, SOCIO-ECONOMIC CONDITIONS AND ETHNO-CULTURAL RELATIONS OF THE POPULATION IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN DURING THE IRON AGE.

Annotation

This article examines the political and socio-economic conditions, as well as the ethno-cultural relations of the population inhabiting the territory of present-day Uzbekistan during the Iron Age. Particular attention is given to the formation of cities and early state entities that emerged as a result of population migrations in antiquity. In addition, the study analyzes cultural and economic micro-oases that reflect the geographical and environmental landscape of the left bank of the Amu Darya River.

Keywords: Samarqand, Koktepa, Yerkurgan, Uzunqir, Qarshi, Jondavlat, Qiziltepa, Bandikhan-1, Dalvarzin, Eylaton, Ashqoltepa, Kozaliquir, Qalaliquir, Unguzorti Karakum, Chirikrabot, Babish-Mulla, Baraktom, Altinasar.

ПОЛИТИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ЖЕЛЕЗНОМ ВЕКЕ.

Аннотация

В статье рассматриваются политические и социально-экономические условия, а также этнокультурные отношения населения, проживавшего на территории современного Узбекистана в железном веке. Особое внимание уделяется процессам формирования городов и ранних государственных образований, возникших в древности в результате миграций населения. Кроме того, анализируются культурно-хозяйственные микрооазисы, отражающие географо-природный ландшафт левого берега реки Амударья.

Ключевые слова: Самарканда, Коктепа, Еркурган, Узункыр, Карши, Джондавлат, Кызылтепа, Бандихон-1, Далварзин, Эйлатон, Ашқалтепа, Козалиқыр, Калалықыр, Унгузортты Каракумы, Чирикрабат, Бабиш-Мулла, Барактом, Алтынасар.

TEMIR DAVRIDA O'ZBEKISTON HUDUDI AHOLISINING SIYOSIY, IJTIMOY-IQTISODIY SHAROITI VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLARI.

Annotatsiya

Maqolada temir davrida O'zbekiston hududi aholisining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va etnik-madaniy munosabatlari, qadimgi davrda aholi migratsiyasi natijasida tashkil topgan shaharlar va davlatlar tahlil qilingan.

Maqolada Amudaryo so'l sohili hududi geografik manzarasini tasvir etgan madaniy-xo'jalik mikrovoahalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Smarakanda, Ko'ktepa, Yerqo'rg'on, Uzunqir, Qarshi, Jondavlat, Qiziltepa, Bandixon-1, Dalvarzin, Eylaton, Ashqoltepa, Ko'zaliqir, Qal'aliquir, Ung'uzorti Qoraqumi, Chirikrabot, Babish-Mulla, Baraktom, Altinasar.

Kirish. Yangi O'zbekiston davrida O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanish taraqqiyoti, barcha sohalarini rivojlantirish uchun olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlar haqqoniy tariximizni yoritishni ham qamrab olmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur [1].

Temir davri O'zbekiston hududida jamiyat taraqqiyotida muhim burilish davri hisoblanadi. Bu davrda temirdan mehnat qurollari va qurol-yarog'larning keng qo'llanilishi xo'jalik faoliyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Aholining asosiy mashg'ulotlari dehqonchilik va chorvachilik bo'lib, ularning samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar natijasida ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kuchaydi. Jamiyatda boy va kambag'al qatlamlar shakllana boshladi. Hunarmandchilikning rivojlanishi savdo aloqalarining kengayishiga olib keldi. Shaharlar va aholi manzilgohlarining soni ortdi. Siyosiy hayotda esa qabilaviy boshqaruv asta-sekin murakkabroq hokimiyat tizimlariga o'ta boshladi. Harbiy kuchning ahamiyati ortib, rahbarlarning mavqei mustahkamlandi. Shu tariqa Temir

davri O'zbekiston hududida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda chuqur o'zgarishlar bilan xarakterlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Temir davrida O'zbekiston hududi aholisining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti hamda etnik-madaniy munosabatlariga oid tarixiy ma'lumotlar turli davrlarga mansub manbalarda keng va xilma-xil tarzda yoritilgan. Ushbu masalalar haqidagi dastlabki ma'lumotlar antik davr mualliflari hamda o'rta asr tarixchilari asarlarida uchrab, ular orqali qadimgi jamiyatning boshqaruv tizimi, xo'jalik faoliyati va aholi tarkibi haqida muhim tasavvurlar shakllanadi. Mustaqillikgacha bo'lgan davrda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar temir davri jarayonlarini asosan o'sha davr mafkurasi doirasida talqin qilgan bo'lsa-da, ular muayyan tarixiy faktlarni saqlab qolganligi bilan ahamiyatlidir. Mustaqillikdan keyingi manbalarda esa temir davri tarixiga yangicha yondashuv, milliy manfaatlar va xolis ilmiy qarashlar asosida baho berila boshlandi. Xususan, Yangi O'zbekiston davrida olib borilayotgan tadqiqotlarda siyosiy tuzilmalar, ijtimoiy qatlamlar, xo'jalik munosabatlari va etnik-madaniy jarayonlar yanada chuqur va tizimli o'rganilmoqda. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlarda O'zbekiston hududidagi Temir davri jamiyatining umumjahon tarixidagi o'rni va ahamiyati keng tahlil qilingan.

Ushbu manbalar majmui temir davrida aholi hayotining murakkab va ko'p qirrali jarayonlarini yoritishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola obyektivlik, tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik izchillik, umumlashtirish, asoslash, arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlari natijalaridan foydalanish tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston tarixida temir davri jamiyatida sodir bo'lgan miqdoriy va sifat jihatidan yuz bergan o'zgarishlarni aholi tomonidan olib borilgan bunyodkorlik faoliyatlari natijalari bilan izohlash mumkin. Aholining hududlarda joylashishini, etnik munosabatlarning hududiy chegaralarini, mehnat qurollari texnologiyasidagi o'zgarishlarni, jamiyat bag'rida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishini aks ettirgan muhim ko'rsatkichlarni ikki tarixiy davrga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq:

Birinchi tarixiy davr – mil. avv. X – VIII asr oxiri.

Ikkinchi tarixiy davr – mil. avv. VII – V asrlar.

Mil. avv. VII – VI asr birinchi yarmida urbanizatsion jarayonning issiq shabadalari Baqtriya, O'rta va Janubiy Zarafshon hamda Farg'ona vodiysini qamrab olgan. Masalan, O'rta Zarafshonda Smarakanda, Ko'ktepa tashkil topgan [2].

Janubiy Zarafshonda Yerqo'rg'on, Uzunqir, Qarshi, Shimoliy Baqtriyada Jondavlat, Qiziltepa, Bandixon-1, Farg'ona vodiysida Dalvarzin, Eylaton va Ashqoltepa yodgorliklari dehqonchilik voha viloyatlarining ma'muriy-hududiy, diniy-mafkuraviy markazlari, shahar-davlatlari bo'lgan [3], [4].

Ilk temir davrida O'zbekiston tarixiy-madaniy viloyatlarini urbanizatsion jarayonlar qamrab olmagan. Mil. avv. VII – VI asrlar so'nggi choragida Ustyurtning markaziy va janubiy hududida eneolit davri aholisining bronza davridagi taqdiriga oid tadqiqotlar kuzatilmaydi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Ustyurt shimolida bronza davri aholisi ajdodlari yarim yerto'la turarjoylarda yashaganlar va ular hayotida qo'lda yasalgan kulolchilik ashyolari, bronzadan yasalgan qurollar muhim o'rin tutgan va chorvachilik xo'jaligi ustunlik qilgan [5].

Mil. avv. VI – V asrlarda urbanizatsiya jarayonlarining qamrab olinishi natijasida G'arbiy Zarafshonda Buxoro, Quyi Amudaryo hududida Bozorqal'a, Xazorasp, Ichanqal'a, Sariqamishbo'yi havzasi Amudaryo Dovdon irmog'i o'rta qismi shimoliy hududida Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Ustyurt Chinkida Oybuyirqal'alar barpo qilinib, ular dehqonchilik vohalarining shahar-davlatlari bo'lgan [6], [7], [8], [9], [10], [11].

Mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmidan keyin ahamoniy imperiyasi satraplik tizimiga Baqtriya, Janubiy Zarafshon, O'rta Zarafshonda Smarakanda, Janubiy hudud – Quyi Amudaryo va Sho'rxon qishlog'i atrofi, so'l sohili hududida Amudaryo Dovdon irmog'i o'rta va shimoliy, Ko'zaliqir, Qal'aliqir balandligi, Janubiy va Uzboy hududlari kirgan. Mil. avv. V asr oxiridan Xorazm mustaqil davlat sifatida ahamoniy tarkibidan ajralib chiqqan [12].

Keyingi asrlarda O'rta Zarafshon, Qashqadaryo va Shimoliy Baqtriya hududlari turli siyosiy manzarada bo'lgan. Qang', Davan, Yunon-Baqtriya, Kushon davlatlari misolida bu jarayonni ko'rish mumkin.

O'zbekiston hududida temir davri shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlari asosida antik davr aholi markazlari faoliyatlari davom etgan hamda qo'shni hududlar o'zlashtirish markazi bo'lgan. Shu tariqa, temir davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarida o'zaro bog'liq holda rivojlanish jarayonlari kechgan. Mil. avv. V asr oxiridan mustaqillikni qo'lga kiritgan Turon pasttekisligi shimoli-g'arbiy hududida tashkil topgan

Xorazm davlati (poytaxti Oqshaxonqal'a, yozgi qarorgohi Tuproqqal'a) Siyovush-kayyoniy avlodi Farasman rahbarligida boshqarish tizimi Xorazm vohasining mustaqil siyosiy tarixini boshlab berdi. Qazishma ishlari natijasida Oqshaxonqal'aning fil suyagi bilan bezatilgan qurbongohi topib o'rganilgan [13].

Tadqiqotchi V.N. Yagodin xulosasiga ko'ra, Amudaryo o'ng sohilida Sho'rxon atroflari, so'l sohilida Dovdon irmog'i shimoliy chegarasigacha hududlardan tashqari, xususan, Ung'uzorti Qoraqumi hududigacha bo'lgan yerlarga Amudaryodan sug'orish inshootlari chiqarilmagan [14].

Umuman, mil. avv. X – VI asr birinchi yarmigacha O'zbekiston dehqonchilik vohalarida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishi qanday manzarada bo'lganligini inobatga olish lozim. Tadqiqotchilar asarlarida O'zbekistonning tarixiy-geografik viloyatlari ahamoniy imperiyasi tarkibiga qo'shib olinishini Kir II harbiy harakatlari bilan bog'lashgan [15].

Keyinchalik ahamoniy imperiyasi tarkibidan ajralib chiqqan mustaqil siyosiy birlashmalar O'rta Osiyo siyosiy xaritasidan o'rin ola boshladilar. A.S. Sagdullayev ma'lumotiga ko'ra, mil. avv. VII – VI asrlarda O'rta Osiyo hududiy tizimi Zarafshon, Qashqadaryo, Surxon, Murg'ob, Balxob va Amudaryo chegaralari orqali o'tgan [16]. Shu bilan birga, tadqiqotchi O'zbekiston hududida, xususan, O'rta Osiyoda ilk davlatlar tarixini mil. avv. 2-mingyillik ikkinchi yarmi, mil. avv. X – VIII asrlar, mil. avv. VII – VI asrlar bilan belgilagan [17]. Gerodot ma'lumotiga ko'ra, Areyta, So'g'd, Xorazm XVI satraplikka kirgan, Baqtriya esa XII satraplikka kirgan [18]. M.A. Dandamayev, ma'lumotiga ko'ra mil. avv. 1-mingyillik birinchi yarmida O'rta Osiyoda ilk shaharlar qurilishi boshlangan [19].

O'zbekiston hududida miqdoriy jihatdan 20-100-200 gektarli shaharlar qurilgan (Qiziltepa, Uzunqir, Ko'ktepa, Afrosiyob) [20]. Orolbo'yi sharqiy hududlari, Sirdaryoning Janadaryo va Quvondaryo, Inkordaryo iqlomlari suv havzalari chorvador qabilalarning o'troq turmush tarzida dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligini olib borish imkonini bergan. Antik davrda Chirikrabot, Babish-Mulla, Baraktom, Altinasar arxeologik yodgorliklari qadimgi davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlari rivojlanishini aks ettirgan [21,22,23].

Xulosalar.

1. Aholining hududiy joylashuvi, mehnat qurollari texnologiyasining takomillashuvi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi temir davri jamiyatini ikki asosiy tarixiy bosqichda o'rganishni taqozo etadi.

2. Baqtriya, Zarafshon vodiysi, Farg'ona va Quyi Amudaryo hududlarida tashkil topgan shaharlar nafaqat iqtisodiy, balki diniy-mafkuraviy va siyosiy markazlar vazifasini ham bajargan.

3. Temir davrida O'zbekiston hududida jamiyat taraqqiyoti miqdoriy va sifat jihatidan sezilarli darajada o'zgargan bo'lib, bu jarayonlar aholi tomonidan olib borilgan bunyodkorlik faoliyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

4. Ilk temir davrida barcha hududlar bir xil darajada urbanizatsiyaga tortilmagan bo'lib, ayrim mintaqalarda chorvachilik ustun xo'jalik turi sifatida saqlanib qolgan. Bu hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi farqlar hisobiga kechgan.

5. Antik davr shahar markazlari temir davri jarayonlarining mantiqiy davomchisi sifatida keyingi siyosiy va madaniy taraqqiyot uchun zamin yaratgan.

6. Temir davrida O'zbekiston hududida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivoji o'zaro uzviy bog'liq va farqli holda, murakkab va bosqichma-bosqich tarzda kechgan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh Yangi O'zbekistontaraqqiyot strategiyasi // Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi. Toshkent, 2022, "O'zbekiston". 264 b.
2. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002. – 255 с.
3. Сулейманов Р.Х. Появление города на Еркургане в процессе урбанизации и сложение государственности на территории Узбекистана // Ўзбекистон тарихи, – Тошкент: "Фан", 1999. – № 2. – С. 14-22.
4. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари // Ўзбекистон тарихи. –Тошкент: "Фан", 2002. – № 1. – Б. 3-11.
5. Байпаков К.М., Таймагамбетов Ж.К. Археология Казахстана. – Алматы: Казахстан университети, 2006. – С. 116-117.
6. Мухамеджанов А.Р. Бухара-город двадцати пяти веков // ОНУ. – Ташкент: "Фан", 1997. Вып. 9-10-11. – С. 9.
7. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: "Наука", 1948. – С. 112..
8. Рапопорт Ю.А., Лапинов-Скобло М. С. Раскопки дворцового здания на городище Калалигыр-1 в 1958-1961 гг. // МХЭ. – М.: "Наука", 1963. Вып-6. – С. 141-156.
9. Сабилов К, Рузимов С. Археологические работы в Хазараспе // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2003. Вып 3-4. – С. 108-109.;
10. Мамбетуллаев М. Хива антик даврда (мил. авв. VI – милодий II асрлар). – Тошкент: "Ўзбекистон", 1997. – Б. 170-171.;
11. Мамбетуллаев М. Исследования храмового комплекса Большая Айбуйир-кала // Ўзбекистон археологияси. – Самарканд, 2011(1) 2. – Б. 52-55.
12. Балаханцев А.С. Отделение Хорезма от государства Ахеменидов // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти", 2013. – С. 60.
13. Minardi M. The hellenistic Chorasmian ketos of Akchakhan-kala. – Bordeaux: Iranica Antiqua, 2016, vol. LI, – Pp. 182-183.
14. Ягодин В.М. Хорезм – Сатрапия государства ахеменидов // Хорезм в истории государственности Узбекистана . – Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти", 2013. – С. 48.
15. Дандамаев М.А., Луконин В. Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М.: "Наука", 1980. – С. 104.
16. Сагдуллаев А.С. Становление раннебактрийской и раннесогдийской государственности // История государственности Узбекистана в трёх томах. – Ташкент: "Узбекистан", 2009. – С. 76.
17. Сагдуллаев А.С. Оседлые области юга Средней Азии и эпоху раннего железа (генезис культуры и социально-экономическая динамика): Автореф. дисс. ист. н. – М., 1989. – С. 40-41.
18. Геродот. Тарих. III.
19. Дандамаев М. Иран при первых Ахеменидов. – М., 1963. – С. 32.
20. Эшов Б. Сўғдиёна тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 2002. – 204 б.
21. Акишев К.А. К проблеме происхождения номадизма в аридной зоне Древнего Казахстана // Поиски и раскопки в Казахстане. – Алма-Ата, 1972. – С. 33-46.
22. Левина Л.М., Птичников А. В. Динамика ирригации и древних русел в урочище Джетыгасар (Восточное Приаралье) // Аральский кризис (историко-географическая ретроспектива). – М.: "Наука", 1991. – С. 155-156 .
23. Utubaev J., Kasenova A., Kaliyeva J. Miloddan avvalgi 1-ming yillik ikkinchi yarmida Quyi Sirdaryo bo'ylari etnomadaniy tarixi haqida: Chirikrobot madaniyati manzilgohlari. O'zbekiston arxeologiyasi. – Samarqand, 2023 (1) 28. – В. 42-55.